

BUYRUG'I

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi
“Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash
tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-154-son Farmoni ijrosini ta'minlash
to'g'risida**

Fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash, ularning ochiqlik borasidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash hamda faoliyatini ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-154-son Farmoni qabul qilingan.

Mazkur Farmon bilan:

1. 2022-yil 1-avgustdan boshlab:

Davlat budjeti, shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar, shu jumladan istiqbolli investitsiya va infratuzilma loyihalari bo'yicha ularning asosiy texnik ko'rsatkichlari va boshqa loyiha hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatiga kiritilishi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarida (keyingi o'rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etilishi belgilangan.

2. Quyidagilar belgilangan:

a) Ochiqlik indeksi quyidagi indikatorlar asosida baholanadi:

davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan xodimlar faoliyatining samaradorligi;

davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko'rsatish holati;

ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e'lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining yo'lga qo'yilishi;

budjet jarayonining ochiqligini ta'minlashga oid ma'lumotlarning rasmiy veb-saytda joylashtirilishi;

Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar joylashtirilishi;

ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi;

korruptsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holati;

jamoatchilik kengashi faoliyatining samaradorligi;

b) Ochiqlik indeksini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Ochiqlik indeksi “0” balldan “100” ballgacha baholanib, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati samaradorligi “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratiladi;

baholash har yili oldingi yilning 1-yanvaridan 31-dekabriga qadar bo‘lgan davrini o‘z ichiga qamrab oladi;

Ochiqlik indeksini hisoblash natijalari har yili 1-aprelga qadar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tomonidan “e-anticor.uz” elektron platformasi va ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilib boriladi.

3. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodika tasdiqlangan.

4. 2022-yil 1-iyuldan boshlab Ochiq ma‘lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxatiga kiritilgan ma‘lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirishda (e‘lon qilishda) quyidagi tartib belgilangan:

ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar davlat organlari va tashkilotlari rasmiy veb-saytning bosh sahifasida alohida bo‘limga joylashtiriladi;

ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar rasmiy veb-saytning boshqa sahifasiga (vab-manzilga) joylashtirilgan taqdirda, ular e‘lon qilinmagan deb hisoblanadi va Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodikaning baholash mezonini bajarilmagan deb topiladi.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash borasida quyidagi qo‘shimcha huquqlar berilgan:

davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning mansabdor shaxslariga ochiqlik sohasidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida ogohlantirish e‘lon qilish;

ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarning buzilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnoma kiritish;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan rasmiy veb-sayt va boshqa axborot resurslarida e‘lon qilingan ochiq ma‘lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilib olish haqida so‘rovnoma yuborish.

Agentlikning ogohlantirish, taqdimnoma va so‘rovnomalari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o‘n kun muddat ichida ko‘rib chiqilishi va natijalari yuzasidan yozma axborot berilishi shartligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. “O‘zbektelekom” AK (keyingi o‘rinlarda — Kompaniya) boshqaruv raisining o‘rinbosarlari, ijroiya apparatining departament direktorlari, boshqarma, xizmat va bo‘lim boshliqlari, shuningdek, Kompaniya tarkibidagi filiallar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmonini ma‘lumot va ijro uchun qabul qilsinlar (ilova qilinadi).

2. “O‘zbektelekom” AKda Ochiqlik indeksini baholash yo‘nalishlari hamda indikator ko‘rsatkichlari bo‘yicha tegishli ma‘lumotlarni taqdim etish uchun mas‘ullar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, mas‘ullar tomonidan tegishli ma‘lumotlar boshqaruv raisining axborot masalalari bo‘yicha maslahatchisi (T. Mamadjanov)ga o‘z vaqtida, sifatli tayyorlangan holda taqdim etib borilishi ta‘minlansin.

3. Boshqaruv raisining axborot masalalari bo‘yicha maslahatchisi (T. Mamadjanov), Murojaatlar bilan ishlash va nazorat boshqarmasi (F. Xalmatov), Komplaens boshqarmasi

(R.Toshpo‘latov) Ochiqlik indeksi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisiga har chorakda kiritib borsinlar.

4. Kompaniya Ochiqlik indeksi bo‘yicha yuqori natijaga erishishi uchun tegishli ma’lumotlarni taqdim etmagan yoki o‘z vaqtida va sifatli tayyorlangan holda taqdim etmagan mas’ullarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo‘llanilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Boshqaruv raisining axborot masalalari bo‘yicha maslahatchisi (T. Mamadjanov), Murojaatlar bilan ishlash va nazorat boshqarmasi (F. Xalmatov), Marketing tahlili va mahsulotlari departamenti (Sh.Shamansurov) va Komplaens boshqarmasi (R.Toshpo‘latov) **bir oy muddatda** Kompaniyaning rasmiy veb-saytini mazkur Farmon talablariga muvofiqlashtirsinlar.

6. Kompaniyaning 2022-yil 16-iyuldagi 318-F-son farmoyishi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu buyruqning bajarilishi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



N. Xasanov

“O‘zbektelekom” AKda Ochiqlik indeksini baholash yo‘nalishlari hamda indikator ko‘rsatkichlari bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni taqdim etish uchun mas’ullar ro‘yxati

T/r	Mezon	Mas’ullar	Ijro muddati	Izoh	Taqdim etilgan ma’lumotlar joylashtirilishi va ma’lumotlar o‘z vaqtida yangilanib borilishini nazorat qiluvchi mas’ullar
1. “O‘zbektelekom” AKda ochiqlikni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan xodimlar faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari					
1.1	Matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, taqdimotlar hamda boshqa tadbirlar (tadbirlar) soni	T.Mamadjanov	doimiy ravishda	tadbir o‘tkazilgandan so‘ng bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov
1.2	Ijtimoiy tarmoqlarda onlayn translyatsiyalar soni	T.Mamadjanov	doimiy ravishda	real vaqt rejimida	T.Mamadjanov
1.3	Matbuot anjumanlari, brifinglar va boshqa tadbirlarda rahbarlarning ishtiroki	T.Mamadjanov	doimiy ravishda	tadbir o‘tkazilgandan so‘ng bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov
1.4	Axborotni yetkazib berish shakli	T.Mamadjanov	har oyda kamida bir marta	keyingi oyning beshinchi sanasigacha	T.Mamadjanov
1.5	Axborotning qamrovi	T.Mamadjanov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov
1.6	Sohaga oid muammolarni yoritish	T.Mamadjanov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov

1.7	Tanqidiy materiallarga munosabat bildirishning tezkorligi	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, Sh.Shamansurov, U.Izbasarov	doimiy ravishda	tanqidiy material e'lon qilingan vaqtdan boshlab 5 soat ichida munosabat bildirish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov
1.8	Tadbirlar haqidagi axborotlarning rasmiy veb-sayt, messenjer va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinishi tezkorligi	T.Mamadjanov, Y.Tulyaganov	doimiy ravishda	tadbir yakunlangandan keyin 1 soat ichida	T.Mamadjanov
1.9	Rahbar yoki axborot xizmati rahbarining muayyan axborot voqeligi munosabati bilan rasmiy bayonot berishi	T.Mamadjanov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda	T.Mamadjanov
1.10	Xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e'lon qilinishi	T.Mamadjanov	har yarim yillikda bir marta	har olti oy yakunidan keyingi oyning o'n beshinchi sanasida	T.Mamadjanov
2. Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko'rsatish holatini baholash mezonlari					
2.1	Qayta aloqa tizimining samarali yo'lga qo'yilganlik darajasi	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, U.Izbasarov, Sh. Shukurova	doimiy ravishda	beriladigan savollarga bir sutkadan kechiktirmagan holda javob berish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.2	Tashkilot faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish darajasi	B.Jurayev, A.Axunbayev, S.Ollaberganov, Y.Tulyaganov,	doimiy ravishda	yangilangan yoki qabul qilingan hujjatni bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.3	Ichki idoraviy hujjatlarni e'lon qilish darajasi	B.Jurayev, Y. Tulyaganov, R.Toshpo'latov	doimiy ravishda	yangilangan yoki qabul qilingan hujjatni bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.4	O'z kuchini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	B.Jurayev, Y. Tulyaganov, R.Toshpo'latov	doimiy ravishda	o'z kuchini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yetti kun ichida e'lon qilish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov

2.5	Tasdiqlangan dasturlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	Barcha department, boshqarma va xizmatlar	doimiy ravishda	ma'lumotlarni kamida bir haftada bir marta yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.6	Ommaviy tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	T.Mamadjanov, F.Xalmatov	doimiy ravishda	o'tkazilishi rejalashtirilgan ommaviy tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tadbir o'tkazilishidan kamida bir sutka oldin e'lon qilish	T.Mamadjanov
2.7	Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	M.Shaymatov, filiallar rahbarlari	har oyda bir marta	bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni keyingi oyning 5-sanasigacha e'lon qilib borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.8	Ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	B.Jurayev	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda e'lon qilib borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.9	Muvofiqlashtiruvchi va maslahat organlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	U.Izbasarov, B.Jurayev, M.Shaymatov, R.Toshpo'latov, S.Ollaberganov, T.Mamadjanov	doimiy ravishda	ma'lumotlarni yangilab borishga oid talablar, o'zgartirish kiritish haqidagi qaror qabul qilingan kundan boshlab bir hafta muddat ichida	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.10	Davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning hududiy tuzilmalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	A.Axunbayev, Sh.Shamansurov, M.Shaymatov, S.Ollaberganov,	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.11	Idoraviy bo'ysunuvdagi tashkilotlarning veb-saytiga havolalar mavjudligi	Sh.Shamansurov	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov

2.12	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	F.Xalmatov	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	F.Xalmatov
2.13	Murojaatlarning umumlashtirilgan natijalarini e'lon qilib borish darajasi	F.Xalmatov	har chorakda	real vaqt rejimida murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari	F.Xalmatov
2.14	Boshqa rasmiy veb-saytlar va Hukumat portaliga havolalarning mavjudligi	Sh.Shamansurov	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.15	Dolzarb mavzularga oid ma'lumotlar to'plamining alohida bo'limga tizimlashtirilishi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.16	Matbuot xizmati va veb-sayt uchun mas'ul bo'lgan xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi	T.Mamadjanov	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov
2.17	Ma'lumotlarni boshqa tillarga sinxronlash funksiyalarining mavjudligi	T.Mamadjanov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov
2.18	Rasmiy veb-saytning mobil versiyasi mavjudligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.19	Yangi ma'lumotlar bilan interaktiv usulda tanishish imkoni mavjudligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.20	Jamoatchilik fikrini o'rganish vositalarining joriy etilganligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov, Y.Tulyaganov, Sh. Shukurova, filiallar rahbarlari	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov

2.21	Veb-saytda ma'lumotlarni qidirishning soddalashtirilgan usullari mavjudligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov, U.Kamalov, R.Toshpo'latov, "Axborot tizimlari" filiali	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasi	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.22	Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish qulayligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	real vaqt rejimida	T.Mamadjanov, F.Xalmatov
2.23	Ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish qulayligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	real vaqt rejimida	T.Mamadjanov, F.Xalmatov
2.24	Axborotlarning sanasini ko'rsatish tartibiga rioya qilinishi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
2.25	"Onlayn maslahatchi" xizmati tashkil etilganligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	real vaqt rejimida javob olish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3. Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e'lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining yo'lga qo'yilishini baholash mezonlari					
3.1	O'z faoliyatiga oid hisobotlarni e'lon qilish holati	A.Axunbayev, U.Izbasarov, A.Nuritdinov, F.Xalmatov, T.Mamadjanov, R.Toshpo'latov, S.Ollaberganov, Y.Tulyaganov, Sh. Shukurova	bir yilda bir marotaba	har yili 1-martga qadar	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.2	Hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish	T.Mamadjanov	bir yilda bir marotaba	har yili 10-martga qadar	T.Mamadjanov
3.3	Hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish holati	T.Mamadjanov	bir yilda bir marotaba	har yili 1-aprelga qadar	T.Mamadjanov
3.4	Tasdiqlangan Ish rejalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, Y.Tulyaganov	har olti oyda	har olti oy yakunidan keyingi oyning o'n beshinchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov

3.5	Hisobot (hay'at) yig'ilishlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	T.Mamadjanov, S.Ollaberganov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.6	Mansabdor shaxslarning xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	A.Axunbayev, N.Xusanov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.7	Avtomototransport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	N.Xusanov, filallar rahbarlari	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.8	Xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	A.Nuritdinov, filiallar rahbarlari	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.9	Xarajatlar smetasi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	A.Axunbayev, A.Nuritdinov, U.Izbasarov, U.Kamalov, N.Xusanov	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.10	Budjet hamda budjetdan tashqari jamg'armalar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	A.Axunbayev	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.11	Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	U.Kamalov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.12	Davlat xaridini rejalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	U.Kamalov	bir yilda bir marotaba, har chorakda	Xaridlar rejasi tasdiqlangandan so'ng, 15 kun ichida	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.13	Xarid komissiyasi tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	U.Kamalov	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.14	Davlat xaridlarini amalga oshirishga oid tartib-taomillar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	U.Kamalov	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov

3.15	Ochiqlik sohasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov, F.Xalmatov	bir yilda bir marotaba, har chorakda	har yil yakunidan keyingi yilning 20-fevral sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.16	O'zini o'zi baholash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, S.Ollaberganov	o'rnatilgan tartibda	doimiy ravishda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.17	Ochiqlik sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	F.Xalmatov, T.Mamadjanov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.18	Ochiqlikni ta'minlash sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	T.Mamadjanov, F.Xalmatov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.19	Ochiqlikni ta'minlash bo'yicha onlayn so'rovnoma o'tkazish blokining tashkil etilganligi	T.Mamadjanov, F.Xalmatov	har olti oyda bir marotaba	har olti oy yakunidan keyingi oyning o'n beshinchi sanasida	T.Mamadjanov, F.Xalmatov
3.20	Ochiq ma'lumotlar to'plamini pasportlash tartibi joriy etilganligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov, A.Axunbayev, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov, S.Ollaberganov, Y.Tulyaganov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
3.21	Ochiq ma'lumotlar to'plami va qayta aloqa samaradorligini baholash tizimining joriy etilganligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
4. Budjet jarayonining ochiqligini ta'minlashga oid ma'lumotlarning rasmiy veb-saytda joylashtirilishini baholash mezonlari					
4.1	Mablag'lar taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotning e'lon qilinishi	A.Axunbayev	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasi	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov

4.2	Kapital qo'yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	A.Axunbayev, A.Nuritdinov, U.Izbasarov	har chorakda	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasi	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
4.3	Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	U.Kamalov	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
4.4	Asosiy vositalarning xarid qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	U.Kamalov, A.Axunbayev	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
4.5	Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning xaridi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	U.Kamalov, A.Axunbayev	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
4.6	Qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	U.Kamalov, A.Nuritdinov, A.Axunbayev	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
5. Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar joylashtirilishini baholash mezonlari					
5.1	Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar to'plamining e'lon qilinishi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
5.2	Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'plamining e'lon qilinishi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
5.3	Geopozitsiyaga bog'langan ochiq ma'lumotlar to'plamining ulushi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
5.4	Elektron hukumat yagona identifikatorlariga bog'langan ochiq ma'lumotlarning soni	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov

5.5	Ochiq ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan mobil ilovalar soni	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
6. Ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishini baholash mezonlari					
6.1	Qayta aloqaning tashkil etilganligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov, Sh. Shukurova, filiallar rahbarlari	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
6.2	Murojaat yo'llashning interaktiv usullari tashkil etilganligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov, F.Xalmatov	doimiy ravishda	murojaatni real vaqt rejimida kuzatib borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
6.3	Foydalanuvchilar bilan kommunikatsiya tarmog'i orqali muloqot qilish tizimi yo'lga qo'yilganligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov, F.Xalmatov	doimiy ravishda	belgilangan muddatlarda	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
6.4	Rahbar bilan bevosita muloqot qilish tizimi tashkil etilganligi	T.Mamadjanov, Sh.Shamansurov, F.Xalmatov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
7. Korruptsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holatini baholash mezonlari					
7.1	Korruptsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga doir ichki idoraviy hujjatlarning ochiq e'lon qilinishi	R.Toshpo'latov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
7.2	Korruptsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan alohida aloqa kanallari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	R.Toshpo'latov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
7.3	Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda korruptsiyaviy holatlarning oldini olish tizimi joriy etilganligi	M.Shaymatov, R.Toshpo'latov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov

7.4	Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini belgilovchi hujjatlarni e'lon qilish darajasi	M.Shaymatov, R.Toshpo'latov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
7.5	Manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining joriy etilganligi	R.Toshpo'latov	har chorak	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
7.6	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralari ko'rish va natijalari haqida hisobdorlik tizimi yo'lga qo'yilganligi	R.Toshpo'latov	bir yilda bir marotaba	har yil yakunidan keyingi yilning 20-fevral sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
7.7	Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki tartib-taomillaridan xabardorligi hamda sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi	M.Shaymatov, R.Toshpo'latov, Y.Tulyaganov	har chorak	har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
7.8	Keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida o'tkazilgan press-tadbirlarni (matbuot anjumanlari, brifing, seminar, trening, davra suhbat, taqdimot, muhokama va boshqa tadbirlar) e'lon qilish darajasi	T.Mamadjanov, R.Toshpo'latov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
7.9	Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida tayyorlangan targ'ibot materiallarini (slayd, rolik, ma'ruza matnlari, maqola, buklet, risola va boshqalar) e'lon qilish darajasi	T.Mamadjanov, R.Toshpo'latov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov

8. Jamoatchilik kengashining faoliyati samaradorligini baholash mezonlari

8.1	Rasmiy veb-saytda jamoatchilik kengashi haqidagi ma'lumotlarning joylashtirilishi	T.Mamadjanov, B.Jurayev, M.Shaymatov	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
8.2	Jamoatchilik kengashining tashkiliy-huquqiy asoslari ishlab chiqilganligi hamda belgilangan tartibda e'lon qilinganligi	T.Mamadjanov, B.Jurayev	bir yilda bir marotaba	har yil yakunidan keyingi yilning 20-fevral sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov

8.3	Jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish bo'yicha belgilangan talablarning bajarilishi darajasi	T.Mamadjanov, B.Jurayev, M.Shaymatov	bir yilda bir marotaba	har yil yakunidan keyingi yilning 20-fevral sanasigacha	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov
8.4	Jamoatchilik kengashiing ochiqlikni ta'minlash, korruptsiyaga qarshi kurashish va davlat organi faoliyatini takomillashtirishdagi ishtiroki	T.Mamadjanov, B.Jurayev	doimiy ravishda	bir sutkadan kechiktirmagan holda yangilab borish	T.Mamadjanov, F.Xalmatov, R.Toshpo'latov